

INTELEKTUAL FAOLIYATGA TAYYORLASH HAQIDA TUSHUNCHA, MAZMUNI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Rajabova Gulruh Muhsinovna

Osiyo Xalqaro Universiteti pedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *intelektual faoliyatga tayyorlash haqida tushuncha, mazmuni va tarkibiy komponentlarini takomilashtirish yo'llari ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchi, intellektual, ilmiy, amaliy, shaxs, integratsiya, raqamli ta'lim, metod, raqobat, bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash tushunchasining pedagogik mohiyati, tahlil, sintez, taqqoslash, xotira, tasavvur, tatqiqot, loyiha, motivatsiya.*

Аннотация: *В данной работе рассматриваются научно-практическая значимость и пути совершенствования содержания и структурных компонентов понятия подготовки к интеллектуальной деятельности.*

Ключевые слова : *Учитель, интеллектуальный, научный, практический, личностный, интеграция, цифровое образование, метод, конкуренция, Педагогическая сущность понятия подготовки будущих учителей к интеллектуальной деятельности, анализ, синтез, сравнение, память, воображение, исследование, проект, мотивация.*

Abstract: *This article discusses the scientific and practical significance, the conceptual content of preparation for intellectual activity, and the ways to improve its structural components. terminologiyasida tayyorladim.*

Keywords: *teacher, intellectual, scientific, sractical, personal / Individual, integration, digital education, method, competition, pedagogical essence of the concept of preparing future teachers for intellectual activity, analysis, synthesis, comparison, memory, imagination, research, project, motivation.*

Hozirgi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri — raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va intellektual salohiyatga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatga tayyorligi ularning kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Intellektual-(lotincha intellectus-tushunchasi, anglash)-bu insonning bilish, fikrlash, o'rganish, muammolarni yechilishi va moslashish qobiliyati. U orqali insonlar atrof-muhitni anglaydi va to'g'ri qarorlar qabul qilindi. Pedagogik adabiyotlarda ko'rsatib o'tilganidek

“intelektual faoliyat” tushunchasi shaxsning bilish jarayonlari — tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, mantiqiy xulosa chiqarish hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini majmui hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun intellektual faoliyat nafaqat bilim egallash bilangina cheklanmay, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, darsda o‘quvchilarni fikrini jamlab darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, turli manbaalardan foydalanib darsni qiziqarli tashkillashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatlarini namoyon qila olishni ham o‘z ichiga oladi. T.H. Olimov o‘z ilmiy tadqiqotlarida bo‘lajak mutaxassislarni va pedagoglarning intellektual yetukligi ularning ma‘naviy, axloqiy va fuqarolik madaniyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini aytib o‘tganlar. Hamda o‘qituvchi shaxsining intellektual rivoji faqat akademik bilimlar bilan emas, hatto shaxsiy pozitsiya, tanqidiy fikrlash va kasbiy mas‘uliyat bilan ham bog‘liq. Bugungi kunda oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida intellektual faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan fanlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va mustaqil ta‘lim shakllari joriy etilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon hali ham tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlashning nazariy-asosiy jihatlarida, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, globallashtirish jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta‘lim tizimi oldiga yangicha talablarni qo‘yib bormoqda. Bular: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, mustaqil fikrlashi, qiziquvchanligi, ijodkorligi va intellektual salohiyatiga bevosita bog‘liqligi hisoblanadi. Shu uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash masalasi bugungi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, intellektual faoliyat shaxsning bilish jarayonlari — idrok, tafakkur, xotira, tahlil, tasavvur, umumlashtirish, sintez, taqqoslash va mantiqiy xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyat turlari hisoblanadi. Psixologik yondashuvga ko‘ra, intellektual faoliyat insonning muammoli vaziyatlarni anglash, ularni hal etish va yangi bilimlar yaratishga qaratilgan ongli faoliyati. Pedagogik nuqtayi nazardan esa intellektual faoliyat o‘qituvchining ta‘lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion metod va texnologiyalarni tanlash hamda amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun intellektual faoliyat faqat bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki ularni pedagogik jarayonda ijodiy qo‘llash, mustaqil qaror qabul qilish va katta mas‘uliyatni his etishni ham albatta o‘z ichiga oladi. Ko‘plab tadqiqotchilar intellektual faoliyatni shaxsning kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etmoqdalar. Pedagogik faoliyatda intellektual tayyorgarlik o‘qituvchining ta‘lim sifati, o‘quvchilarning bilish faolligi va ta‘lim natijalariga bevosita

ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarda intellektual faoliyatni shakllantirish oliy pedagogik ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

T.H. Olimov o'z ilmiy ishlarida intellektual faoliyatni shaxsning ma'naviy-axloqiy va fuqarolik madaniyati bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi. Uning fikricha, o'qituvchining intellektual yetukligi nafaqat bilim darajasi bilan, balki uning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati bilan belgilanadi. Intellektual faoliyatga tayyor o'qituvchi pedagogik jarayonda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni mustaqil va samarali hal eta oladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogika nazariyasida intellektual faoliyat tushunchasi "tanqidiy fikrlash", "ijodiy tafakkur", "muammoli o'qitish" kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir. E'tibor beradigan bo'lsak bo'lajak o'qituvchi kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi, uning pedagogik mahorati va ta'lim jarayonidagi samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Uni shakllantirish va rivojlantirish esa puxta nazariy asoslangan, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni talab etib kelinmoqda. Ilm-fan va texnika-texnologiyalar rivoji darajasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uning kelajagini belgilab borishdagi kishilar intellektual salohiyati haqidagi axborot nihoyatda ahamiyati katta. Shu sababli ham hozirda ta'limni axborotlashtirish, intellektuallashtirish negizida pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish tobora dolzarblik kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonda zamonaviy axborot davrida albatta yetuk, bilimli, ilimli kadrlar yetishib chiqmoqda. Bu yetuk kadrlar yurtimiz kelajagi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil, 21 aprel, № 79 (6773)

2.Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.

3. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1), 20-27.

4. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).

5. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).

6. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.